



## O'LKAMIZDAGI BAYRAMLAR VA ULARNING KELIB CHIQISHI

**Qo'chqorova Gulira'no Qurbanali qizi**

*Farg'ona davlat universiteti talabasi*

**Aliyeva Sarvinoz Abbosjon qizi**

*Ilmiy rahbar: Farg'ona davlat universiteti, Amaliy ingiliz tili kafedrasi o'qituvchisi.*

**Anotatsiya:** Ushbu maqola o'zbek xalqining milliy bayramlari, urf-odat va marosimlari, ularning kelib chiqishi, biz hozirgi kunda nishonlayotgan va ajdodlarimiz nishonlagan bayramlar haqida ham malumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Etnografiya, bayram, Navro'z, xalq bayramlari, buyuk allomalar, O'rta Osiyo xalqlari..

Inson hayotiga eng muhum va kerakli bolgan narsa bu qadim zamonlardan beri nishonlanayotgan bayramlar, urf-odatlar va turli xil marosimlar hisoblanadi. Bayramlarsiz insonlarning hayoti mutlaqo zerikarli va tasavvur qilib bo'lmaydigan bo'ladi. Xalq hayotini eng zavqli va maroqli tomonlarini aks ettiruvchi narsa bu bayramlardir.

Sharqning buyuk olimi Mahmud Qoshg'ariy ta'kidlaganidek "Bayramlar xalqning shodlik va hursandchilik kuni"- degan edi. Bayramlar yordamida inson umri davomida hursandchilik, o'yin-kulgu, tantanavorlik holatini keltirib chiqargan muhum sanalar, katta yutuqlar nishonladi. Insoniyat hayotida bayramlar shu qadar muhum ro'l o'ynaydiki ularni nishonlamaydigan odam, oila va jamoa topilmasa kerak, shuningdek, barcha xalqlar millatlar va elatlarda o'zlarining shakllangan bayramlari yoq emas, shu jumladan, o'zbeklar ya'ni Orta Osiyo xalqlarining ham qadimgi davrlardan va hozirgi kunda ham nishonlanayotgan bayramlari, urf-odatlari, to'y marosimlari mavjud. Tarixdan insonparvar o'zbek xalqining bayramlari qon-qardosh boshqa xalqlarning bayramlari bilan shakllangan va rivojlnana boshlagan. O'zga xalq bayramlariga tasir ko'rsatgan va shu bilan birga boyigan. Tarixchilar, etnograflar, san'atshunoslar, arxeologlarning ma'lumotlariga asoslanib bayramlar eng qadimgi davrlardan mavjud bo'lganligini va bayramlar ibtidoiy jamoa hayotida ham muhum ro'l tutganligini bilishimiz mumkun. Madaniyatshunos olimlar ham shu fikrlarni ta'kidlaganlar. Masalan, D.M. Genkin ta'kidlaganidek " Bayramlarning chuqur ildizi insoniyatning go'daklik davriga borib taqaladi." [ 1:44]. Yoki M.M. Baxtning fikricha" Bayram insoniyat madaniyatining boshlang'ich shaklidir." [2:11].



O'rta Osiyo xalqlari shu jumladan O'zbekiston hududida iste'qomat qiluvchi xalqlarning bayramlarini o'rganishda buyuk olim Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlarda qolgan yodgorliklar" asaridan hamma'lumotlar olishimiz mumkun. Beruniyning asardagi ma'lumotlariga ko'ra, Sug'diyarda Marsad oyining birinchi kuni - Navro'z va 28- kuni-Romush og'am (otashxonalarda to'planish hayiti), Naysaj oyining 12-kuni - Mohirj Basokoniy oyining -7- kuni-Nikh og'am 15-kuni- Amsxvorod (olov tegmagan narsalarni yeish hayiti) singari bayramlar o'tkazilgan.

Navro'z bayramimining kelib chiqishi haqida ham turli miflar, afsonalar va turli fikrlar bor. Misol qilib aytganda, Zardushtiylik davrida yaxshilik hudosi Axuramazda bahor, yozda, yomonlik hudosi Axriman kuz va qishda hukumdorlik qilishgan ekan. Bahorning birinchi kunini Axuramazda Axriman ustidan g'alaba qozongan muqaddas kun sifatida bayram qilishgan, shu narsa aynan Navro'ga mos kelgan. Yan bir afsonaga ko'ra Odam ato va Momo havo uchrashgan kun Navropz bayrami deb hisoblangan ekan. Shu singari ko'plab ma'lumotlar, Firdavsiyning " Shoxnoma" asarida va Navoiyning " Tarixi mulki ajam " nomli asarlarida Navro'z paydo bo'lagani haqida bayon qilingan. Ko'p vaqtlar o'tgandan so'ng, Navro'zni nishonlash bir oyga uzaygan. Beruniyning bu haqda " keyingi podshoxlar bu oy, ya'ni farvardin mohning barchasi( kunlari) ni hayitga aylantirib, ularni 6ga taqsim qildilar. Birinchi besh kun podshoxlar uchun, ikkinchi besh kun ulug' kishilar uchun, uchinchisi podshoxlarning g'ulomlari uchun, to'rtinchisi xizmatkorlari uchun, beshinchisi xalq ommasi uchun, oltinchisi cho'ponlar uchun" [ 3. 257, 268] degan fikrlari mavjud.

O'zbekistonda yangi madaniy-marifiy hayot taraqqiyoti sabali mehnat va madaniy sohalarning vijudga kelishi, kisholarning talab extiyojlari, qiziqishlari va davr talabi tufayli yangi zamonayiz bayramalr kelib chiqdi. Shu jumladan tabiatni himoya qilosh uchun, " Tabiatsevarlar bayrami", axoli madaniyatini rivojlantirish uchun " Folklor batrami", " Til bayrami", oilaviy va shaxsiy hayot uchun oltin, kumush to'ylar, qariyalar bayramlari, mahalliy aholi hayotini yaxshilash uchun ko'cha bayramlari, mahalla bayramlari, qishloq va ko'cha bayramlari ham rivojlanmoqda.

Hozrgi kunda bayramlarimiz soni 100dan oshiq bo'lib, shular qatoriga quyidagi bayramlar kiradi va keng miqyosda nishonlanib kelinadi.

1-yanvar- Yangi yil;

14-yanvar - Vatan himoyachilar kuni

8-mart-Xalqaro xotin qizlar kuni;

21-mart-Navro'z;



9-may- Xotira va qadrlash kuni,

1- sentyabr-Mustaqillik kuni;

1-oktyabr-O'qituvchi va murabbiylar kuni;

8-dekabr-Konstitutsiya kuni;

Ramazon oyidan so'ng nishonlanadigan Ramazon hayiti (lyd al Fitr) va Hayitdan so'ng nishonlanadigan Qurbon hayiti (lyd al Adxa) ham milliy bayramlarimiz hisoblanadi, ammo bu bayramlar nishonlanadigan sanalar Hijriy taqvimga ko'ra har yili o'zgaradi.[4]

Tarixdan shu narsa aniqki, avvallari oliy ma'lumotli bayram tashkilotchilari, senarist va rejisiyorlarsiz ham bayramlar juda qiziqarli, maroqli o'tgan buning sababi esa bayramlarni xalqni, axolini o'zi tashkillaganligidadir. Shundan bilish mumkunki ilgari paytlarda ham insonlar ijodkor, tashabbuskor hamda tashkilotchi bo'lishganini bilishimiz mumkun. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkunki, halqning hozrgi farovon hayotini, o'tmish va kelajak hayoti ko'zgusini, quvochi, shodligi va

xursandchilagini bayramlar siz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bizning o'lkamiz ya'ni O'zbekiston Respublikasi o'zining zavqli, maroqli, hushchaqchaq, go'zal va albatta, ko'ngilochar bayramlariga ega bo'lgan istiqboli porloq yurtdir. Shuni aytish kerakki, avlod ajdodlarimiz asrlar davomida ardoqlab, avloddan-avlodga meros qilib qoldirgan bayramlarni ezozlab zamon ruxi bilan hamnafas holda boyitib, oqilona tarzda mustahkamlab bizdan keyingi avlodga yetkazish oliy ish ekanligini aslo yoddan chiqarmasligimiz lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Genkin. O.M. Mossovie prazdniki. 1975. 44-bet.
2. Baxtin M.M. Tvorchestvo Fransa Rabls i narodnaya kultura srednevikoviya i Renesansa 1965. 11-bet.
3. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorlik. Tanlangan asarlar. 1-tom. 257.268-betlar.
4. Qo'shtepa tumani hokimligi rasmiy kanali. Qoshtepa.uz. 5. Aliyeva Sarvinoz Abbosjon qizi (2022). The Cultural and Social Peculiarities of Present-Day Holidays in the Repuclic of Slovak. International Journal on Orange Technologies,
5. Aliyeva, S. A. Q. (2021). LINGUOCULTURAL PROPERTIES OF PHRASEOLOGICAL UNITS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 2(11), 135-140.